


"Polimerlar fanining zamonaviy muammolari" Respublika anjumani o'tkazildi

O'zR FA Polimerlar kimyosi va fizikasi institutida "Polimerlar fanining zamonaviy muammolari" onlayn Respublika anjumani o'tkazildi.



Ushbu anjumanda FA ilmiy-tadqiqot muassasalari yetakchi olimlari, doktorantlar, yosh tadqiqotchilar, Toshkent, Namangan, Farg'ona, Xorazm, Jizzax viloyatlaridagi oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, polimerlar sohasida faoliyat olib borayotgan olimlar o'z ma'ruzalari bilan ishtirok etdi.



Ushbu anjuman polimerlarni ishlab chiqarish, qayta ishlash va ulardan foydalanishdagi yangi yo'nalishlar, polimerlar haqidagi fan sohasidagi yutuqlar, sohalarning ilmiy tadqiqotlarga bo'lgan ehtiyojlari bilan tanishish, shuningdek, soha vakillariga o'zaro fikr va tajriba almashish imkoniyatini yaratdi.

Ishonchimiz komilki, ushbu respublika anjumanining o'tkazilishi fanning istiqbolli polimerlar sohasining yanada taraqqiy etishi yo'lida Respublika olimlarining hamkorligini yanada mustahkamlaydi.